

---

## SO'X TUMANIDA 2022 YILDA AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSION LOYIHALAR VA 2023 YILDA AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR



### So'x tumanida 2022 yilda amalga oshirilgan investitsion loyihalar va 2023 yilda amalga oshiriladigan ishlar

So'x tumanida **2022 yilda** qiymati **112,7 mlrd.so'm** bo'lgan

**60 ta** investitsiya loyihalari ishga tushirilishi hisobiga **572 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Shundan, hududiy investitsiya dasturi doirasida qiymati **102,6 mlrd.so'm** bo'lgan **49 ta** loyihalar ishga tushirildi va **524 ta** yangi ish o'rinlari joriy qilindi.

**Joriy 2023 yilda** esa **169,8 mlrd.so'mlik 66 ta** yangi investitsiya loyihalari hisobiga **758 ta** ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, **2022 yilda 730,0 ming dollarlik** xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lsa, **2023 yilda "GOODWELL GROUP" MChJ**ning mevani qayta ishlashni tashkil etish hamda **"FRESH FAREL" MChJ QK**ning forel balig'i yetishtirishni tashkil etish loyihalari hisobiga **4,5 mln.dollar** xorijiy investitsiyalar o'zlashtirish kutilmoqda.

Bundan tashqari, 2022 yil uchun belgilangan **5,4 mln. dollarlik** (*shundan 2,8 mln.dollarlik sanoat mahsulotlari,*

*2,5 mln.dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari*) eksport prognozi amalda yil yakuni bilan **7,0 mln. dollarga** yoki **130,7 foizga** bajarildi.

Jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti

**5,8 mln. dollarni** tashkil etib, prognoz **206,5 foizga** bajarilgan bo'lsa, sanoat mahsulotlari eksport hajmi **1,2 mln. dollarga** yoki prognozga nisbatan **46,2 foizga** teng bo'lmoqda.

Shu bilan birga, **2023 yilda 9,16 mln. dollarlik** (*shundan sanoat mahsulotlari eksporti 3,1 mln.dollar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti esa 6,06 mln.dollarlik*) mahsulotlar eksporti amalga oshirilib, **2022 yilga** prognoziga nisbatan

**171 foizga** o'sishi ko'zda tutilmoqda.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-21 16:44:58